

NUTQIY AKT TURLARINI BELGILASHDA SOTSIOPRAGMATIK OMILLARNING AHAMIYATI

Ziyotova Surayyo Erkin qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsenti (PhD),

Mamadaliyeva Manzura Zoir qizi,

Toshkent amaliy fanlar universiteti magistranti

e-mail: mamadaliyevam96@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada nutqiy akt turlarini belgilashda sotsiopragmatik omillarning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda nutq jarayonida ishtirok etuvchi subyektlarning ijtimoiy mavqeyi, kommunikativ vaziyat, madaniy me'yorlar hamda muloqot maqsadining nutqiy aktlarning shakllanishi va talqin etilishiga ta'siri yoritiladi. Shuningdek, turli ijtimoiy va madaniy kontekstlarda nutqiy aktlarning farqlanishi misollar asosida ko'rsatib beriladi. Maqola natijalarida sotsiopragmatik omillar nutqiy aktlarni to'g'ri anglash va samarali kommunikatsiyani ta'minlashda muhim omil ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar. Nutqiy akt, sotsiopragmatika, kommunikativ vaziyat, ijtimoiy mavqe, madaniy me'yorlar, muloqot maqsadi, pragmatik tahlil, diskurs, kontekst, nutq strategiyalari.

Annotation. This article analyzes the role and significance of sociopragmatic factors in determining the types of speech acts. The study examines how participants' social status, communicative context, cultural norms, and communicative intentions influence the formation and interpretation of speech acts. It also demonstrates, through examples, the variation of speech acts across different social and cultural contexts. The findings substantiate that sociopragmatic factors play a crucial role in the accurate understanding of speech acts and in ensuring effective communication.

Keywords. speech act, sociopragmatics, communicative context, social status, cultural norms, communicative intention, pragmatic analysis, discourse, context, speech strategies.

Аннотация. В данной статье анализируется роль и значение социопрагматических факторов при определении типов речевых актов. В исследовании рассматривается влияние социального статуса участников, коммуникативной ситуации, культурных норм и коммуникативных намерений на формирование и интерпретацию речевых актов. Также на основе примеров показано различие речевых актов в различных социальных и культурных контекстах. Результаты исследования подтверждают, что социопрагматические факторы играют важную роль в правильном понимании речевых актов и обеспечении эффективной коммуникации.

Ключевые слова. речевой акт, социопрагматика, коммуникативная ситуация, социальный статус, культурные нормы, коммуникативное намерение, прагматический анализ, дискурс, контекст, речевые стратегии.

Kirish. Antroposentrik tilshunoslikning bugungi taraqqiyot bosqichida til hodisalarini o'rganishga yondashuvlarda turli fanlar hamkorligi kuzatilmoqda. Mana shunday hamkorlik natijasida yuzaga kelgan sotsiopragmatikada nutqiy birliklarning, xususan, matnning ijtimoiy-pragmatik xususiyatlarini o'rganish dolzarb vazifalaridan biridir.

Ma'lumki, til birliklarining nutq vaziyati, kontekst bilan bog'liq holda yuzaga chiqadigan xususiyatlari, kommunikatsiyaning nutq ishtirokchilari maqsadi bilan bog'lanishi, muloqot jarayonida tanlanadigan nutqiy akt turlari, muloqot shakllarini o'rganish pragmalingsvistikaning markaziy masalalari hisoblanadi. Pragmalingsvistika

kommunikatsiyaga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tadqiq qilar ekan, shaxsning ijtimoiy sifatlari bilan ham ish ko'rishi tabiiy hol. Garchi "pragmalingvistika sohasi uchun so'zlovchi va tinglovchi orasidagi munosabat, sotsiolingvistika uchun til va nutqning shakllanishidagi sotsial faktorlarning ta'siri asos qilib olinsa-da" [12:76], ko'p hollarda ularni bir-biridan keskin ajratishning imkoni yo'q. Shu jihatdan nutqni uni yaratuvchi shaxsga xos ijtimoiy sifatlari, ijtimoiy voqelik, muloqot muhiti kabilar bilan bog'liq holda o'rganish sotsiopragmatik jihatdan nihoyatda muhim.

Adabiyotlar tahlili. So'nggi yillarda o'zbek tilshunosligida pragmalingvistik aspektda olib borilgan tadqiqotlarda ko'p hollarda nutq egasining ijtimoiy sifatlari urg'u berish holatlari kuzatilmoqda [2:90]. Ayniqsa, insonning til vositalaridan foydalanishi masalasiga bag'ishlangan tahlillarda uning nutqi bevosita shaxsiy sifatlari bilan bog'liq holda tekshirilmoqda. Albatta, nutq yaratilishi va uning mazmuniy idroki masalasi tahlilida insonga xos xususiyatlarning nutqqa ta'sirini o'rganish maqsadga muvofiq. Zero, B.Mengliyev qayd etganidek, "Shaxsning lisoniy imkoniyatlardan amaliy foydalanishi so'zlovchi hamda tinglovchining shaxsiy sifatlari, nutq maqsadi, uning turlari (oshkora yoki yashirin), shakllari (xabar, so'roq, buyruq, iltimos, maslahat, va'da berish, salomlashish, so'rashish, xayrlashuv, uzr, tabrik, shikoyat kabilar), nutq strategiyasi va taktikasi, nutq odobi, muloqot madaniyati, so'zlovchi yoki tinglovchining dunyoqarashi, bilim darajasi, qiziqishlari kabi qator nolisoniy omillar bilan mushtarak holda yuzaga chiqadi" [4:215]. Bu holat nutqni uni yaratuvchi inson, unga xos ijtimoiy sifatlari bilan aloqadorlikda tekshirish lozimligidan dalolat beradi.

Kommunikatsiya jarayonida nutqiy akt turlarining tanlanishi masalasini o'rganishda ham nutq ishtirokchilarining ijtimoiy sifatlari omilini inobatga olish muhim. Garchi bu muammo pragmalingvistikaning xususiy masalalari tarkibiga kirsa-da, kishilar tomonidan amalga oshirilgan nutqiy akt turlarining ijtimoiy omillar bilan bog'lanishi ushbu muammoning bevosita sotsiopragmatikaga ham daxldor ekanligini ko'rsatadi.

Ma'lumki, pragmalingvistikada nutqiy akt nazariyasi haqidagi daslabki nazariyalar J.Ostin tomonidan ilgari surilgan. U nutqiy aktning lokutiv, illokutiv, perlokutiv tiplarini ajratgan [2:89]. Keyinchalik bu nazariya Z.Vendler, J.Serl asarlarida rivojlantirildi. J.Serl asosiy e'tiborini bilvosita nutqiy aktlarni o'rganishga qaratgan, shuningdek, nutqiy aktlar tasnifini takomillashtirgan [5:123]. Z.Vendler esa illokutiv aktlarning mohiyatini ochib bergan [6:90]. Manbalarda ushbu muammo tadqiqiga V.Humboldt, Sh.Balli, K.Byuller, E.Benvenist, M.Baxtin ham e'tibor qaratganligi qayd etiladi [7:71].

Tadqiqot metodologiyasi. Sh.Safarov ham nutqiy akt nazariyasining shakllanishi, o'rganilishi, tasnifi, nutq egalarining kommunikativ maqsadiga ko'ra voqelanishi kabi masalalarga munosabat bildirdi, nutqiy aktlarning o'zbek tilidagi ayrim turlariga tavsif berdi. Uning ta'riflashicha, "nutqiy akt – ma'lum bir gapning aniq muloqot muhitida talaffuz etilishidir. Nutqiy akt mazmunining shakllanishi talaffuz qilinayotgan gap

ma'nosining so'zlovchi va tinglovchi tomonidan muloqot matniga nisbatan "boyitilishi", idrok etilishi natijasidir"[7:72].

Natijalar va muhokama. Darhaqiqat, nutqiy akt ma'lum bir jamiyatda qabul qilingan nutqiy xattiharakatni amalga oshirish prinsiplari va qoidalariga muvofiq tarzda shakllanadigan maqsadli nutq, pragmatik vaziyat bilan bog'liq holda voqelanuvchi muloqot birligidir. Nutqiy aktlar kommunikatsiya jarayonida yuzaga keladi va uning turlari asosiy hollarda nutq egasining kommunikativ maqsadiga ko'ra belgilanadi. Ammo nutqiy akt turlarining tanlanishida so'zlovchi va tinglovchining ijtimoiy maqomi, roli, yoshi, kasbi, qiziqishlari kabilar ham ahamiyatga ega bo'ladi. Jumladan, ijtimoiy maqomi yuqori bo'lgan nutq egasi – boshliq, rahbar ish faoliyati jarayonida buyruq aktidan ko'p foydalanadi. Ko'pincha buyruq akti buyruq-shart shaklidagi nutqiy akt bilan almashadi. Bunday vaziyatda nutqiy aktda buyruq hamda uni bajarish shartligi talabi aks etadi. Masalan, "Ko'rsatilgan bu topshiriqni bir hafta muddatda bajaring" buyruq akti o'rnida qo'llanilgan "Ko'rsatilgan bu topshiriq bir hafta muddatda bajarilishi shart" nutqiy aktida nafaqat buyruq, balki uni bajarish shartligi haqidagi talab ham yashiringanligi seziladi. Demak, nutqiy aktning bu tarzda mazmunan murakkablashuvi nutq egasining ijtimoiy mavqeyi bilan bog'liq holda yuz beradi.

M.Hakimov bu haqida fikr yuritar ekan, deklarativ aktlarning so'zlovchi va tinglovchining ijtimoiy mavqeyi bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Uning fikricha, "deklarativ aktlarni sodir etayotgan so'zlovchi nutqida o'sha vaziyatdagi holatga hokimlik darajasi sezilib turadi. Masalan, nikoh o'qish vakolati huquqiga har qanday shaxs ham ega bo'lavermaydi. Buning uchun ma'lum darajada islomiy ilmga ega bo'lgan va nikoh o'qish vakolati berilgan shaxslargina deklarativ akti sodir etadilar" [12:150]. Demak, deklarativ akt kommunikantlarning ijtimoiy mavqeyi bilan bog'liq holda yuzaga chiqadi. Badiiy matnda ham bunga misol keltirish mumkin. Adib personajning ijtimoiy mavqeyini yuzaga chiqarish hamda personajning individual nutqini ko'rsatish maqsadida nutqida deklarativ aktlardan ham foydalanadi. Masalan:

- *Qani, kep qoling asalidan op qoling!*
- *Asal bo'lsa, sotarmiding, anoyi?!*
- *Beshik bormi, beshik?*
- *Sumagi qoldi, opoqi, sumagi!*
- *Teri bormi, teri?*
- *To'yga qalampi ola keting!*
- *Qo'y terisi kerak, teri!*
- *Qopqon opketaqol, tozi!*
- *Sho'rtang qurt keragidi?*
- *Jevachka olsangchi, opovsi!..*

Bozorda har kim keragini so'raydi, har kim topganini sotadi, eplaganini oladi. Bozor maydonlari, rasta oralari qo'tonga yangi qaytgan podani eslatadi- shom qorong'isida

adashib netgan ona- bola qo'y-qo'zi singari xaridor sotuvchisini, sotuvchi xaridorini qulog'i ding, ko'zi jonsarak yelib-yugurib izlaydi. Hali zamon quyosh lang'illagan shoyi etagini yig'ishtirib olamni, olamga qo'shib bozorni, bozorga qo'shib tumonatni zulmat ixtiyoriga topshiradi, olomon esa hoziroq xarid qilmasa joni bo'g'zidan chiqib ketadigandek baqiradi- chaqiradi, turtinadi-surtinadi, aldaydi- aldanadi, so'kadi-so'kish eshitadi [11:3].

Tahlilga tortilgan "Bozor" romanidan olingan parchada deklarativ akt sodir etilgan. Xuddi shunday, nutqiy akt turining tanlanishi tinglovchining ijtimoiy xususiyatlari bilan ham bog'liq holda ham yuz beradi. So'zlovchi muloqot jarayonida nutqiy akt turini tinglovchining ijtimoiy maqomi, roli, yoshi, jinsi, kasbi, qiziqishlariga mos holda tanlaydi. Yuqoridagi parchada xaridor va sotuvchining dalogik nutqda qo'llashi mumkin bo'lgan nutqiy aktlar ishlatishi ifodalangan. Masalan, o'zbek lingvomadaniyatida ona rolidagi ijtimoiy shaxsning maktabgacha yoshdagi farzandlariga nisbatan erkalash, maqtov kabi nutqiy aktlarni ko'p qo'llashi kuzatiladi. Katta yoshdagi farzandiga nisbatan esa ko'proq talab, so'roq, buyruq, undash aktlarini ishlatadi. Bu holat nutqiy aktlarning kommunikantlarning yosh xususiyatlari bilan bog'liq holda ham shakllanishini ko'rsatadi. Nutqiy akt tiplari, ularning xarakteri kommunikantlarning jinsi bilan bog'liq holda shakllanishi ham mumkin. Jumladan, ayol jinsiga mansub ijtimoiy shaxslar nutqida uyatli so'zlar bilan so'kish, haqorat mazmunidagi nutqiy aktlarni qo'llash o'zbek lingvomadaniyatiga xos emas. Sharq ayollari madaniyati, odob-axloqi, nutqi bilan doimo ajralib turishgan. Ular muloqot jarayonida hayo, ibo, uyat, ornomus kabi jamiyatda shakllangan umummilliy qadriyatlarga amal qilgan holda nutqiy aktlarni tuzadilar. Shu sababli o'zbek ayollari nutqida minnatdorlik, erkalash, maqtov, hurmat, rozilik, hasrat, achinish kabi nutqiy aktlar tez-tez qo'llanadi.

O'zbek erkaklari nutqida uchraydigan nutqiy aktlar ayollar nutqida kuzatiladigan nutqiy aktlardan jiddiy farq qiladi. Bu holat erkak jinsiga mansub ijtimoiy shaxslarning jamiyatda, oilada egallagan mavqeyi, bajaradigan rollari, kasbiy faoliyati, xarakteri, dunyoqarashi, voqelikka bo'lgan hissiy munosabati kabi turli omillar bilan aloqador. Mana shu omillar ta'sirida o'zbek erkaklari nutqida ko'pincha talab, so'roq, va'da, taklif, undash kabi nutqiy aktlar yuzaga chiqadi. Shuningdek, tahdid, qo'rqitish, do'q-po'pisa, so'kish kabi nutqiy aktlar ham, asosan, erkaklar nutqiga xos bo'lib, ko'p hollarda ularning xarakteri, tarbiyasi, ijtimoiy mavqeyi bilan bog'liq tarzda nutqida namoyon bo'lsa, ba'zan muloqot vaziyati, nutq sharoiti kabi omillar ta'sirida voqelanadi. Demak, nutqiy aktlarning jinsga ko'ra farqlanishiga nafaqat shaxslarning sotsial tafovutlari bilan bog'liq ijtimoiy belgi-xususiyatlari, balki nutq vaziyati, muloqot muhiti talabi kabilar ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Nutqiy aktlarning kommunikantlarning kasbiy faoliyati bilan bog'lanishi ularning qanday kasb egasi ekanligi bilan aloqador. Ammo ayrim hollarda muloqot vaziyati, nutq sharoiti kabi omillar nutqiy aktlarning kasbiy faoliyatga ko'ra tiplarining tanlanishini

taqozo qiladi. Demak, muayyan kasbda faoliyat yurituvchi kishilar nutqida ularning kasbi bilan bog‘liq holda nutqiy aktlarning o‘ziga xos turlari yuzaga keladi. Masalan, savdo-sotiq sohasida faoliyat yurituvchi kommunikantlar nutqida taklif, maqtov, savdolashuv aktlari tez-tez ishlatilsa, vrachlar nutqida ko‘pincha talab, ogohlantirish, undash, maslahat kabi nutqiy akt turlari qo‘llanadi. Ushbu faoliyat turlari bilan shug‘ullanmaydigan kishilar nutqida aynan shu kasblar bilan bog‘liq nutqiy aktlarning qo‘llanilishi nutq vaziyati, muloqot sharoiti talabi asosida yuz beradi.

Nutqiy akt tiplari vaziyat va sharoit omili bilan bog‘liq holda ham shakllanadi. Nutqiy aktda vaziyat va sharoit omilining o‘ziga xosligini tilshunos H.Ne‘matov ham alohida ta’kidlaydi: “Lisoniy birliklarning nutqiy rang-barangligini ta’minlovchi yana bir omil – bu nutqning voqelanishida fizik, psixik v.b. faqat shu vaziyat uchun xos bo‘lgan sharoitdir. Masalan, sershovqin joyda ovoz bilan emas, imo-ishora bilan fikr ifodalash o‘ng‘ay. Bunda, masalan, “kel” ma’nosini qo‘lning ma’lum bir harakati ifodalaydi va shu lisoniy birlik bilan teng qimmatlik (sinonimlik, variativlik v.h.) munosabatlariga kirishadi. Bundan xulosa qilish mumkinki, nutqda ixtiyoriylik (erkinlik) o‘ta cheklangan va mohiyatan nutqiy erkinlik uqilgan, anglangan lisoniy zaruratdir” [10:94].

Xulosa. Aytilganlar asosida xulosa qilish mumkinki, nutqiy akt kommunikantlarning ijtimoiy sifatleri hamda nutq vaziyati, muloqot sharoiti kabi pragmatik omillar bilan bog‘liq holda shakllanar ekan, sotsiopragmatik tavsifga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Austin, J. L. How to Do Things with Words. Oxford: Oxford University Press. 1962.
2. Mey, J. L. Pragmatics: An Introduction. Oxford: Blackwell Publishing. 2001.
3. Thomas, J. Meaning in Interaction: An Introduction to Pragmatics. London: Longman. 1995.
4. Levinson, S. C. Pragmatics. Cambridge: Cambridge University Press. 1983
5. Nurmonov, A. Lingvistik pragmatika asoslari. Toshkent: Fan. 2008
6. Mahmudov, N. Til va nutq madaniyati. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 2012
7. Shodiyev, Sh. Pragmatika va nutqiy faoliyat. Toshkent: Fan va texnologiya. 2010
8. Rasulov, R. Umumiy tilshunoslik. Toshkent: O‘qituvchi. 2006
9. Abdurahmonov, G‘. (2005). Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: O‘qituvchi. 2005
10. Yo‘ldoshev, B. Matn lingvistikasi. Toshkent: Tafakkur. 2014
11. Хуршид Дўстмухаммад Бозор роман – Тошкент, 2000. –Б. 321
12. Ҳақимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2001. – Б. 150